

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.1./KXLN2391>
UDC: 343.102(045)(575.1)

TINTUV TERGOV HARAKATI TUSHUNCHASI VA UNING BOSHQA TERGOV HARAKATLARI TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

Murodov Baxtiyorjon Baxodirovich,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi dastlabki tergov va kriminalistika
kafedrasи boshlig'i, professor, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3734-458X
e-mail: Azizzon2009@mail.ru

Xomidov Voxidjon Adxamovich,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0002-3083-0772
e-mail: alialiey779@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tergov harakati va tintuv tergov harakatining tushunchasi, tintuv tergov harakatining mazmun-mohiyati, bu borada tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlari, ishni sudga qadar yuritish bosqichida jinoyat-protsessual normalarning ustuvorligini ta'minlash, jinoyat-protsessual harakatlardan tergov harakatlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan mezonlar, tintuv tergov harakatining boshqa tergov harakatlari tizimida turgan o'rni va tintuv tergov harakati ta'rifi qonun hujjalari o'z ifodasini topmaganligi, shuningdek, tergov amaliyotida ushbu tergov harakatining mazmuni to'g'ri tushunilishida va uning o'z o'rnidagi qo'llanishida ayrim tushunmovchiliklar mavjudligi, sud-tergov amaliyotida tintuv o'tkazilishi lozim bo'lgan holatlarda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, olib qo'yish, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish yoki guvohlantirish tergov harakatlarini o'tkazishdagi farqlari, shuningdek, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunda qayd etilgan "Turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish" tezkor-qidiruv tadbiridan, "Favqulodda holat to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan "Ushlab turilgan shaxslar, ularning yonida bo'lgan narsalar va hujjalalar, shuningdek, ularning transport vositalari qonunchilikda belgilangan tartibda ko'zdan kechirilishi mumkin" degan mazmundagi majburlov chorasidan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning "Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, ashyolar va transport vositalarini ko'zdan kechirish, ashyolar va hujjalarni olib qo'yish"ni belgilovchi XXI bobida nazarda tutilgan tartibi bilan umumiy va farqli jihatlari asoslantirib berilgan.

Kalit so'zlar: tergov harakati, tintuv, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, suda, qaror, sanksiya.

ПОНЯТИЕ РОЗЫСКА И ЕГО МЕСТО В СИСТЕМЕ ИНЫХ СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЙ

Мурадов Бахтиёржон Баходирович,
доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой
предварительного следствия и криминалистики Академии
Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Хомидов Вохиджон Адхамович,
самостоятельный соискатель Академии
Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассмотрены понятие следственного действия и розыскного действия, сущность оперативно-розыскного действия, мнения ученых, проводивших исследования по этому поводу, обеспечение приоритета уголовно-процессуальных норм на стадии обращения дела в суд, критерии, по которым следственные действия можно отличить от уголовно-процессуальных действий, место обыска и следственного действия в системе других следственных действий. Определение розыска и следственного действия в правовых документах не выражены, а также имеются некоторые неточности в правильном понимании содержания данного следственного действия и правильном его применении в следственной практике, подобные инциденты имеют место в случаях, когда в судебно-следственной практике должен производиться обыск. Различия в проведении таких следственных действий, как осмотр, выемка, исследование доказательств на месте происшествия либо дачи показаний указаны в Законе Республики Узбекистан «Об оперативно-розыскной деятельности»: «Осмотр жилых и иных мест, зданий, сооружений, земельных участков, технических и транспортных средств» и «Задержанные лица, их вещи и документы, а также их транспортные средства могут быть осмотрены в порядке, установленном законодательством». Обоснованы следственные действия, общие и отличные от порядка, предусмотренного главой XXI Кодекса об административной ответственности, в которой определены административное задержание, осмотр вещей и транспортных средств, конфискация вещей и документов.

Ключевые слова: следственное действие, обыск, дознаватель, следователь, прокурор, судья, постановление, санкция.

THE CONCEPT OF SEARCH AND ITS PLACE IN THE SYSTEM OF OTHER INVESTIGATIVE ACTIONS

Muradov Bakhtiyorjon Bakhodorovich,
Head of the Department Criminalistics,
Academy of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

Khomidov Vokhidzhon Adhamovich,
Independent Researcher, Academy
of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article considers the concept of investigative action and search process, the essence of operational and investigative action, the opinions of scientists who conducted research on this subject, ensuring the priority of criminal procedural norms at the stage of referral to court, the criteria by which investigative actions can be distinguished from criminal procedural actions, the place of search and investigative action in the system of other investigative actions. The definition of the search and investigative action is not expressed in the legal documents, and there are some inaccuracies in the correct understanding of the content of this investigative action in investigative practice and its correct application, such incidents occur in cases where in judicial and investigative practice the search should be performed. Differences in the conduct of such investigative actions as inspection, seizure, examination of evidence at the scene of the incident, or testimony are specified in the Law of the Republic of Uzbekistan "On Operative-Investigative Activity": "Inspection of residential and other places, buildings, structures, land, technical and vehicles" and "Detained persons, their belongings and documents, as well as their

vehicles may be inspected in the manner prescribed by law". Investigative actions, common and different from the procedure provided by Chapter XXI of the Code of Administrative Responsibility, which defines administrative detention, inspection of things and vehicles, confiscation of things and documents, are justified.

Keywords: investigative action, search, inquirer, investigator, prosecutor, judge, ruling, sanction.

Kirish

So'nggi yillarda yurtimizda sud-huquq tizimini demokratik asosda isloh etish va erkinlashtirish borasida keng ko'lamli ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Zero, har qanday demokratik davlatda sud tizimi inson huquqlari himoyasiga qaratilgan mexanizmning asosini tashkil qiladi. Bu esa, o'z navbatida, Konstitutsiyasiyaviy normalarni amalda huquqning muhofaza qiluvchi organlar tomonidan bajarilishi surishtiruvchi va tergovchining biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda tintuv o'tkazish va protsessual rasmiylashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o'rganish va bu borada taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, tergov harakati, tintuv tergov harakati tushunchalarini yoritib berish, tintuv tergov harakatlarining boshqa tergov harakatlari dan asosiy farqlarini ko'rsatib berishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Ma'lumki, surishtiruvchi va tergovchi¹ biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli narsa yoki hujjatlar bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda tintuv o'tkazishga haqlidir.

Har qanday tergov harakatining o'ziga xos jihatlari va qirralari mavjudligini inobatga olib, tintuv tergov harakatining mazmun-mohiyati, uning boshqa tergov harakatlaridan farqli tomonlarini yanada chuqurroq o'rganishdan avval tergov harakati deganda nimani tushunish lozimligini bilib olish maqsadga muvofiqdir. Chunki tergovchi tomoni-

dan amalga oshirilgan barcha protsessual harakatlarni ham tergov harakati deb bo'lmaydi.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksning 36, 37, 38¹, 39, 46, 48, 53, 55, 66, 68, 70, 72, 73, 83, 88, 91¹, 91², 91³, 93, 135, 151, 210, 226, 244, 320, 329, 349, 352, 353, 355, 356, 357, 367, 368, 370, 371, 375, 377, 380, 381⁸, 381¹³, 382, 443, 497²⁰, 524, 538 va 548-moddalarida "tergov harakatlari" atamasi aynan dalillarni to'plash va tekshirish vositalari (usullari)ni anglatish uchun qo'llangan. Lekin e'tiborli tomoni shundaki, "tergov harakati" atamasiga amaldagi JPKda ta'rif berilmagan. Bu esa jinoyat-protsessual huquq nazariyasi da mazkur tushunchaga nisbatan turli xil ta'riflarning berilishiga sabab bo'lgan. Jumladan, Z.F. Inog'omjonova, G.Z. To'laganova, N.M. Qo'shayev, Sh.F. Fayziyev, M.A. Rajabova, A.X. Rahmonqulov, D.M. Mirazov, B.B. Murodov, B.N. Rashidov, Sh.A. Kulmatov singari yurtimizning ko'plab atoqli protsessualist olimlari o'z ishlarida "tergov harakatlari" tushunchasiga mualliflik ta'riflarini ber-gan.

N.M. Qo'shayev va Sh.F. Fayziyevlarning fikricha, tergov harakatlari – dalillarni yig'ish va tekshirishning qonun bilan tartibga solingan va davlat majburlov kuchini qo'llash imkoniyatlari bilan ta'minlanadigan usullaridir [1].

U.A. Tuxtashewaning fikricha, agar tergov harakatlarini keng ma'noda talqin qilin-sa, mazkur tushuncha tergovchining barcha protsessual harakatlarini qamrab olishini qayd etgan. Bunga jinoyat ishini qo'zg'atish,

¹ JPKning 320¹-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi ham, tergovchi ham bevosita tergov organi hisoblanishi hamda ikkisi ham o'z yurituvadigi jinoyat ishi doirasida tintuv tergov harakatini amalga oshirish vakolatiga ega ekanligini inobatga olib, tadqiqot ishida har gal ularni takrorlashning oldini olish maqsadida "surishtiruvchi va tergovchi" deb qayd etish lozim bo'lgan holatlarda faqat "tergovchi" jumlasidan foydalananish maqsadga muvofiq deb topildi.

shaxsni ishga jabrlanuvchi sifatida jalg etish, protsessual majburlov choralarini qo'llash va jinoyat ishi doirasida amalga oshiriladigan boshqa barcha harakatlarni kiritish lozimligini misol tariqasida keltirgan [2].

M.A. Rajabova, A.X. Rahmonqulov, D.M. Mirazov va B.N. Rashidovlarning fikricha, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdon shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat-protsessual qonun talablariga muvofiq amalga oshiradigan, ish holatlarini aniqlash uchun ahamiyatga ega faktik ma'lumotlarni topish, tekshirish va qayd etishga qaratilgan protsessual harakatlar tergov harakatlari deyiladi [3].

Material va metodlar

Maqolada analiz va sintez, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilib, tintuv tergov harakati tushunchasi va uning boshqa tergov harakatlari tizimida tutgan o'rni mavzusida boshqa olimlarning qarashlari va fikrlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada tarixiylik metodidan foydalanilib, bu metod yordamida ushbu mavzuda izlanish olib borgan olimlarning qarashlari bayon etilgan. Bundan tashqari, maqolada prognozlash metodi hamda tizimli, funksional yondashuvlar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat-protsessual huquq nazariyasida har bir olim tergov harakatlariga nisbatan o'zining munosabatini bildirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham mazkur atamaga nisbatan yuzdan ortiq ta'riflar ishlab chiqilgan [4].

Tergov harakatlari tushunchasini tergovchi faoliyati mohiyati orqali talqin etadigan va tergov harakatlariga o'tmishdagi hodisalarni anglashga qaratilgan va tadqiq qilish xarakteriga ega harakatlar kiradi, deb hisoblaydigan olimlar fikrini asosli deb his-

oblash mumkin. Fikrimizcha, bu nuqtayi nazar amaldagi qonun normalariga asoslangan va jinoyat-protsessual huquq fanida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, tergov harakatlari tushunchasi ostida jinoyat-protsessual qonunida qayd etilib, bilish hamda tasdiqlash jihatlariga ega bo'lgan dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda foydalaniladigan, har biri jinoyat izlarining o'ziga xos jihatlariga mos bo'lgan bilishning umumilmiy usullari birikmasini saqlaydigan o'zaro bir-biri bilan bog'liq harakatlar tizimi tushuniladi.

Mazkur omillarni hisobga olgan holda tergov harakatining boshqa protsessual harakatlardan asosiy farqi uning bilishga oid xarakterida ekanini tan olish kerak. Xususan, ishni yuritayotgan mansabdon shaxs tergov harakatlarini o'tkazish orqali ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergen-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni qonunda belgilangan tartibda aniqlash imkoniga ega bo'ladi.

Fikrimizcha, protsessual harakatlardan tergov harakatlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan mezonlarni to'liq belgilamay turib, tintuvning mazmun-mohiyatini anglash mumkin emas. Shuning uchun ham quyidagi mezonlarga alohida e'tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz:

- tergov harakatlarini amalga oshirish dalillarni to'plash usuli hisoblanadi². Ko'p hollarda tintuv mazkur maqsadga erishilishi ni ta'minlaydi. Oddiy misol, nazorat o'tkazish punktlarida shaxsning o'zida, kiyimida yoki yonida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilishi, uning ishga gumon qilinuvchi tariqasida jalg etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tintuv dalillarni tek-

² JPKning 87-moddasi birinchi qismiga muvofiq, dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; ko'rsatuvi hodisa ro'y bergen joyda tekshirish; olib qo'yish; tintuv; ko'zdan kechirish; guvohlantrish; murdanai eksgumatsiya qilish; eksperiment o'tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan to'planadi.

shirish usuli ham bo'lishi mumkin. Masalan, tintuv natijalari so'roq qilingan shaxslarning giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar yashiringan joy to'g'risidagi ko'rsatmalarini tasdiqlashi mumkin;

- har bir tergov harakati ma'lum bir bilish maqsadiga ega. Yuqorida ta'kidlaganidek, har bir tergov harakati o'zining maqsadi, o'tkazish protsessual tartibi va ish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni to'plash usuli bilan boshqa tergov harakatlaridan farq qiladi. Tintuvning o'ziga xos maqsadlari qonun chiqaruvchi tomonidan JPKning 158-moddasida yetarlicha aniq belgilab qo'yilgan.

- u yoki bu tergov harakatini amalga oshirish uchun faktlarga asoslangan dalillar bo'lishi kerak. Ma'lumki, tintuv fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini jiddiy cheklanishi (ayrim holatlarda buzilishi)ga sabab bo'ladigan tergov harakatlari sirasiga kiradi. Shuning uchun ham mazkur tergov harakatini amalga oshirish uchun garchi amaldagi jinoyat-protsessual qonun normalarida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilmagan bo'lsa-da, nafaqat tezkor-qidiruv ma'lumotlari, balki aniq faktlarga asoslangan dalillar bo'lishi lozim.

- qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida tergov harakatlarini faqat vakolatli mansabdor shaxslar o'tkazishi mumkin. Tergov harakatlarini o'tkazishga vakolatli mansabdor shaxslarning ro'yxati jinoyat-protsessual qonunda qat'iy chegaralangan. Ularga jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, surishtiruv bo'linmasi boshlig'i va uning o'rinnbosari, tergovchi, tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va ularning o'rinnbosarlari, prokuror kiradi;

- tergov harakatlari, ayniqsa, tintuvni o'tkazish qonun chiqaruvchi tomonidan majburlov choralarini qo'llash imkoniyati bilan ta'minlangan. Har qanday tergov harakatini amalga oshirishda u yoki bu darajada majburlov choralaridan foydalanish mumkin. Bu uning ishtirokchilari tomonidan o'z majburi-

yatlariga rioya etilishini kafolatlash zarurati bilan izohlanadi va pirovardida jinoyat ishlari bo'yicha haqiqat qaror topishiga xizmat qiladi;

- barcha tergov harakatlari o'tkazish asoslarini protsessual tartibi amaldagi qonun normalarida to'liq tartibga solingen bo'lishi lozim. Bu bir tomonidan tergov harakatlarini amalga oshirish vaqtida shaxs manfaatlariga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish, imkon qadar kamaytirish, shuningdek, davlat organlarini fuqarolarning shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvidan himoya qilish zarurati bilan izohlanadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda tintuv tushunchasiga izoh berilmagan. Bu esa jinoyat-protsessual huquq nazariyasida tintuv tushunchasi olimlar tomonidan atroficha tahlil etilishiga xizmat qilgan. Nazarimizda, aynan yuqorida keltirilgan tergov harakatlarining umumiy jihatlari asosida tintuvning o'ziga xos belgilaridan kelib chiqqan holda mazkur tergov harakatiga ta'rif berishga harakat qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

XX asrning birinchi yarmida tintuvni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar asosan kriminalistik adabiyotlarda tadqiq qilingan, biroq ularda ham tintuv tushunchasi keltirilmagan. Xuddi shunday, V.I. Popov ham "tintuv muhim tergov harakati hisoblanib, uning maqsadi jinoyat qurollari va izlari, o'g'irlangan va jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan boyliklar, shuningdek, tergovdan qochib yurgan jinoyatchilarni topishdan iborat" degan fikr bilan chegaralanadi [5].

1959-yilda O'zbekiston SSR Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilinishi bilan adabiyotlarda tintuvning yetarlicha keng ta'riflari paydo bo'ldi. Shu tariqa A.R. Ratinov ko'rib chiqilayotgan tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: tintuv – ish uchun muhim ahamiyat kasb etgan ashyolarni izlab topish va olib qo'yish, shuningdek, qidiruvdagi shaxslarning topish maqsadida bino va imoratlar, joy uchastkalari, alohida fuqarolarning majburan

ko'zdan kechirilishini o'z ichiga oluvchi tergov harakatidir [6].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida, tintuv tergov harakatiga jinoiy ish bo'yicha dallarni olishga qaratilgan tergov harakati sifatida ta'rif berilgan [7]. Yuridik ensiklopediyada esa tintuv jinoiy ish bo'yicha dalillarni olishga qaratilgan tergov harakati sifatida bayon etilgan [8].

Bir qarashda, tintuv tergov harakatiga berilgan mazkur ta'riflar uning umumiy ma'nosini yoritib bergandek ko'rindi. Lekin tintuv tergov harakatining bir turi hisoblangan shaxsiy tintuv nafaqat qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida, balki amaldagi JPKning 329-moddasiga muvofiq, tergovga qadar tekshiruv davomida ham o'tkazilishini inobatga olsak, uning to'liq emasligini ko'rish mumkin bo'ladi.

A.N. Novitskiy tintuvning mazmunini quyidagicha yoritishga harakat qilgan: "Tintuv – ish uchun muhim bo'lgan narsalarni topish va olib qo'yish maqsadida binolarni, yerlarni, transport vositalarini, fuqarolarni yoki ularning kiyim-kechaklarini, shuningdek, qidiruvdagi shaxslar va jasadlarning topish maqsadida o'tkaziladigan ko'zdan kechirishdan iborat bo'lgan majburlov mazmunidagi tergov harakatidir [9]. Nazarimizda, A.N. Novitskiyning ta'rifi, boshqa olimlar tomonidan berilgan ta'riflarga nisbatan mazmunan ancha boy. Faqatgina uning tintuvda "yerlar" ham ko'zdan kechirilishi mumkinligiga doir fikri, nazarimizda, munozaralidir. Chunki, qonunchilikimiz va sud-tergov amaliyotining tahlili asosida alohida yerlarda tintuv emas, balki hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish maqsadga muvofiq ekanligi haqida xulosaga kelish mumkin.

Yuqorida bildirilgan fikrlar, shuningdek, amaldagi jinoyat-protsessual qonun talablarini asosida tintuv tergov harakatiga quyidagi mazmundagi ta'rifi berish mumkin: tintuv – kuzatuvga asoslangan va qonunda belgilangan tartibga amal qilgan holda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar yo-

xud qidirilayotgan shaxs yoki murda bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan holatlarda, shuningdek, jabrlanuvchiga yetka-zilgan mulkiy zararni qoplash uchun vakolatli mansabdor shaxs tomonidan ularni izlab topish va o'rnatilgan tartibda olib qo'yish hamda gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga tegishli mulklarni xatlash maqsadida biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosi, transport vositalari yoki o'zga joy yoxud biror shaxsni yoki uning kiyim-kechaklarining majburiy ravishda ko'zdan kechirilishidir.

Tintuv tergov harakatining ta'rifi qonun hujjatlarida o'z ifodasini topmaganligi, o'z navbatida, tergov amaliyotida ushbu tergov harakatining mazmuni to'g'ri tushunilishi da va uning o'z o'rniда qo'llanishida ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, sud-tergov amaliyotining tahlili tintuv o'tkazilishi lozim bo'lgan holatlarda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, olib qo'yish, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish yoki guvohlantirish tergov harakatlari o'tkazilganligi va uning natijasida ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlarning topilmasligiga yoki to'liq olinmasligiga sabab bo'layotganligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida qayd etilganidek, tintuv ayrim boshqa tergov harakatlari bilan ba'zi bir o'x-shashliklarga ega. Ularni batafsilroq ko'rib chiqsak.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish protsessual tartibi (JPKning 137-moddasi) shunga asoslanadiki, unda xuddi tintuv singari bilishning asosiy usuli to'g'ridan to'g'ri kuzatuv hisoblanadi. Ko'zdan kechirish ham, tintuv ham jinoyat ishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lgan jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida o'tkaziladi. Biroq ko'rib chiqilayotgan tergov harakatlarining ayrim farqli va o'ziga xos jihatlari ham mavjud. Ularni bilish esa tergovchiga nafaqat qonun normalarini to'g'ri

qo'llash, balki tegishli tergov harakatlarini o'z o'rniда o'tkazib, ish uchun muhim ilmiy qoidalalar nuqtayi nazaridan ham dalillar yig'ishning muqobil usulini tanlash imkonini beradi.

Tintuv hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishdan farqli ravishda o'zida majburlov ahamiyatini yaqqol namoyon etadigan tergov harakatidir. Tintuvni o'tkazish izlanayotgan predmetlarni yashirish xavfi mavjudligi bilan izohlanadi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda, tintuvdan farqli ravishda zarurat bo'lish yoki bo'lmasligidan qat'i nazar qulflar, eshiklar va boshqa narsalarning shikastlantirilishiga yo'l qo'yilmaydi [10]. Shuning uchun ham mazkur tergov harakatini JPKning 329-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq jinovat ishini qo'zg'atishdan avval ham o'tkazish mumkin. Sanab o'tilgan omillar asosida xulosa qilish mumkinki, tergovchi birinchi navbatda uni ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa va hujjatlar ni yashirish xavfi bor yoki yo'qligidan keilib chiqqan holda qanday tergov harakatini o'tkazish lozimligi to'g'risida xulosaga kelsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga, tergovchi u amalga oshirmoqchi bo'lgan tergov harakatining maqsadini ham hisobga olishi lozim. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning maqsadi aynan mazkur joyda jinovat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma'lumotlar borligiga oydinlik kiritishdan iborat³. Tegishli tergov harakatini o'tkazishdan avval tergovchi kutilayotgan tergov harakati davomida aynan nima topilishi mumkinligini faqat taxmin qilishi mumkin. Bu taxmin sodir etilgan jinovatga doir ma'lumotlar, shaxsiy tajriba, orttirilgan bilim va boshqa omillarga asoslanadi. Aynan shuning uchun ham hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish uchun uni tegishli qaror bilan rasmiylashtirish talab etilmaydi. JPKning 139-moddasi ikkinchi qismi-

da nazarda tutilgan holat, ya'ni fuqaroning uyi yoki xizmat joyini ko'zdan kechirish bundan mustasno.

Jinovat-protsessual kodeksning 158-moddasida tintuv maqsadlari (asoslari) aniq belgilab qo'yilgan. Ularga ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar, shuningdek, qidiruvdagi shaxslar va murdalarni izlab topish kiradi. Tintuv o'tkazish haqida asoslantirilgan qaror qabul qilinar ekan, unda ushbu tergov harakatini o'tkazish asoslari, xususan, bu harakatlar qayerda va kimning yashash manzilida o'tkazilishi zarurligi, qaysi narsa yoki hujjatlarning qidirib topilishi va olib qo'yiliishi lozimligi qarorda to'liq ifoda etilishi shart. Bunda tergovchi faqatgina o'zining shaxsiy tajribasi, orttirilgan bilimlari va amaliy ko'nikmalariga emas, balki o'z tasarrufidagi izlanayotgan obyektlarning ehtimoliy joyi haqidagi ma'lumotlarga ham tayanmog'i darkor. Shu bilan birga, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishdan farqli o'laroq tintuvning maqsadi qidiruvdagi shaxslar va murdalarni topishdan ham iborat bo'lishi lozim.

Tergov amaliyotida hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bilan tintuvning maqsadlarini aralashtirib yuborish holatlari tez-tez uchrab turadi. Shu tariqa giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish bo'yicha jinovat ishini tergov qilish davomida tergovchi tomonidan T. ismli shaxsning sodir etilgan jinovatga aloqadorligi to'g'risida ma'lumot olindi. Jinovat izlarini topish va olib qo'yish, jinovat ishining boshqa shart-sharoitlarini aniqlash maqsadida tergovchi tomonidan kechiktirib bo'lmaydigan hollar da shaxsning turar-joyini ko'zdan kechirish

³ Tergov amaliyotining tahlilidan ma'lum bo'ldiki, amaliyot xodimlarida hodisa sodir etilgan joy bilan jinovat sodir etilgan joyning farqli jihatlari bo'yicha yetarlicha tushuncha mavjud emas. Vaholanki, JPKning 137-moddasining tahlili, jinovat izlari bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday joyni hodisa sodir etilgan joy sifatida ko'zdan kechirish mumkinligini ko'rsatadi. Ma'lum bo'ladiki, hodisa sodir bo'lgan joy o'zining mazmuni bo'yicha jinovat sodir etilgan joyga nisbatan ancha kengdir.

lozimligi to'g'risida xulosaga kelinib, bu haqda tegishli qaror chiqarilgan. Biroq shaxsning uyida ayrim xonalarning kirish eshiklariga shikast yetkazilgan holda buzish yo'li bilan ochilgan bo'lsa-da, amalga oshirilgan tergov harakati natijalari hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi bilan rasmiylashtirilgan. Bayonnomaning nomlanishi unda amalga oshirilgan harakatlarga mutanosib emas. Chunki dastlab o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov harakati noto'g'ri tanlangan edi. Shu bilan birga, tegishli sud tergovching mazkur harakatlarini jinoyat-protsessual qonun normalari talablarini jiddiy buzish deb hisoblab, tergovchi harakatlarini noqonuniy deb topgan.

Tintuv faqatgina kimningdir qonuniy egaligidagi obyektlarda o'tkaziladi. Bunda tintuv o'tkazilayotgan obyektning mulkchilik shakli mutlaqo ahamiyat kasb etmaydi. Shuning uchun u faqat ma'lum bir jismoniy, yuridik shaxs, shuningdek, ma'lum bir davlat organlariiga tegishli obyektlarda o'tkazilishi mumkin.

Undan farqli o'laroq hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish aniq egasi bo'lmasan joy (masalan, tashlandiq bino, o'rmon va h.k) da o'tkazilishi mumkin. Bunday vaziyatlar da tintuv o'tkazish maqsadga muvofiq emas, chunki uning yashirilgan predmetlarni izlab topish kabi belgisi mavjud emas.

Bu borada so'nggi yillarda advokatlar tomonidan yuborilayotgan ayrim e'tirozlarning mazmuniga e'tibor qaratsak. Xususan, jinoyat ishini qo'zg'atishdan avval, JKning 210-moddasi bo'yicha amalga oshirilgan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida shaxsning pora olganligi faktini tasdiqlash bo'yicha o'tkazilgan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatlari, amalda o'zining mazmuni bo'yicha tintuvga aylanib ketayotganligi, qonunning qo'pol buzilishi hisoblansa-da, lekin sudlar mazkur qonun buzilish amaliyoti ga deyarli e'tibor qaratmayotganlari tushunarsiz holatdir⁴.

Amaldagi JPK talablariga muvofiq, tergov organi tomonidan ko'zdan kechirish bilan bog'liq majburlov mazmuniga ega bo'lgan tergov harakatlari faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun ham tintuv faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida amalga oshirilishi lozim.

O'zining ayrim belgilariga ko'ra tintuv bilan olib qo'yish tergov harakatlarining o'xshash taraflari mavjud. Biroq ular o'rtasida ham har birining o'ziga xos bir qator farqi jihatlari ham bor. Farqlarini birinchi navbatda mazkur tergov harakatlarini o'tkazish uchun asoslarda ko'rishimiz mumkin.

JKning 157-moddasida belgilanganidek, jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmasa olib qo'yish tergov harakati o'tkaziladi. Bundan tashqari, tergov harakati chog'ida olib qo'yilishi kerak bo'lgan predmetning ayrim o'ziga xos jihatlari ma'lum bo'lishi kerak. Tintuv chog'ida esa tergovchi ma'lum bir predmetning qaysidir joyda yoki qaysidir shaxsda bo'lishi mumkinligini faqat taxmin qiladi.

Agar shaxs taklif qilingan narsa va hujjatlarni ixtiyoriy ravishda berishni rad etgan taqdirda majburiy ravishda olinadi. Bunda tintuvga xos bo'lgan qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga yo'l qo'yilmasligini hisobga olish lozim. Agar olib qo'yish davomida belgilangan joyda olib qo'yilishi kerak bo'lgan predmet topilmasa, biroq u qayerda saqlanishi mumkinligi to'g'risida taxmin qilishga asos bo'lsa, tergovchi tintuv o'tkazish haqida qaror chiqarib, uni o'tkazish huquqiga ega.

Tintuvning shaxsiy tintuv singari turi guvohlantirish tergov harakati bilan o'xshash jihatlarga ega. U tadqiqotning umumiyo byektidan iborat bo'lib, u barcha hollarda inson tanasi hisoblanadi. Mazkur tergov harakatlari o'rtasidagi asosiy farq dalil bo'lib xizmat qila-

⁴ O'tkazilgan so'rovnama natijalarini tahlili.

digan axborot olish uchun foydalaniladigan maqsadlar, asoslar va bilish usullaridan iborat.

JPKnning 142-moddasi birinchi qismiga muvofiq, guvohlantirishning asosiy maqsadi odamning badanidagi ish uchun ahamiyatga molik xususiyat yoki alomatlarni, alohida belgilarni, uning jismoniy rivojlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, dog'larni, tirlangan, shilingan, qontalash joylarni topish zarurati tug'ilgan hollarda, shuningdek, ekspertriza o'tkazishni talab qilmaydigan usullarni qo'llash yo'li bilan shaxsning mastlik va boshqa fiziologik holatini aniqlash hisoblanadi. Ular odatda moddiy hayotning alohida predmeti hisoblanmaydi, zero, odam tanasi bilan bir butunni tashkil etadi, shuning uchun ham aslida ularni olib qo'yishga ruxsat berilmaydi (masalan, tana shikastlarini bayonomada tavsif etish orqali qayd etiladi yoki suratga olinadi). Kam hollardagina tekshiruv vaqtida ish uchun muhim bo'lgan qandaydir predmetlar olib qo'yilishi mumkin (masalan, jabrlanuvchi tanasida avtohalokatdan qolgan bo'yoq izlarini ekspertiza tekshiruvi uchun namuna sifatida olish).

Shaxsiy tintuv o'tkazishda ashyoviy dalil bo'lishi mumkin bo'lgan obyektlarni topish va olib qo'yish maqsadida nafaqat inson tanasi, balki uning ust-boshi, poyabzali, shuningdek uning yonidagi boshqa predmetlar (masalan, sumka, soyabon va h.k.) ko'zdan kechiriladi.

Guvohlantirish davomida inson tanasi ni faqat tashqi tomondan ko'zdan kechirish mumkin, shaxsiy tintuv paytida esa ularning ichini ham ko'zdan kechirishga ruxsat etiladi. Masalan, narkotik moddalarini topish va olib qo'yish maqsadida o'tkaziladigan tintuvlar buning yaqqol tasdig'idir.

JPKnning 146-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, shaxsni yechintirib yalang'ochlash yoki uning badanidagi tirlangan, shilingan, qontalash joylarni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan guvohlantirish surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning topshirig'iga binoan shifokor

yoxud boshqa mutaxassis tibbiy xodim tomonidan o'tkazilishi mumkin. Shaxsiy tintuv esa aksincha, o'tkaziladigan harakatlarning yaqqol majburiy ahamiyat kasb etishi tufayli doimo, jumladan, tintuv o'tkazilayotgan shaxsni yechintirish holatlarida ham tergov organlari mansabdar shaxsi tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Shuningdek, amaliyotchi xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlар tintuv tergov harakatining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunda qayd etilgan "*Turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish*" tezkor-qidiruv tadbiridan, "Favqulodda holat to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan "*Ushlab turilgan shaxslar, ularning yonida bo'lgan narsalar va hujjalilar, shuningdek ularning transport vositalari qonunchilikda belgilangan tartibda ko'zdan kechirilishi mumkin*" degan mazmundagi majburlov chorasidan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning "*Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, ashyolar va transport vositalarini ko'zdan kechirish, ashyolar va hujjalarni olib qo'yish*"ni belgilovchi XXI bobida nazarda tutilgan tartibi bilan umumiy va farqli jihatlarga ega ekanligi alohida qayd etish lozim.

Darhaqiqat, ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ishlarni yuritish davomida ma'muriy yo'l bilan ushlab turilgan shaxsni ko'rikdan o'tkazish, uning ashyolari, transport vositalarini ko'zdan kechirish va ashyo hamda hujjalarni olib qo'yish zarurati yuzaga kelgan taqdirda ham tintuv o'tkazish mumkin emas. Zero, amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda tintuv umuman nazarda tutilmagan. Faqatgina, ushbu Kodeksning 289-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, shaxsni ko'rikdan o'tkazish ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsda bo'lgan shaxslar tomonidan va shu jinsdag'i ikkita xolis ishtirot etgan holda amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan.

E'tiborli tomoni shundaki, shaxsni ko'rikdan o'tkazish yoki uning ashyolari, transport

vositalarini ko'zdan kechirishning aniq chegaralari yoki amalga oshirish tartibi (qaror yoki prokurorning sanksiyasi talab etilishi) amaldagi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun normalarida o'z ifodasini deyarli topmagan. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida shaxsni ko'rikdan o'tkazish yoki uning ashyolari, transport vositalarini ko'zdan kechirish vaja asosida amalda tintuv yoki shaxsiy tintuv o'tkazilishiga sabab bo'lmoqda. Qolaversa, mazkur jarayonning qonun bilan yetarli darajada tartibga solinmaganligi, amaliyotchi xodimlarning harakatlariga ham obyektiv baho berish imkonini bermaydi. Eng achinarlisi, JPKda belgilangan tergov harakatini MJTKda nazarda tutilgan shaxsni ko'rikdan o'tkazish yoki uning ashyolari, transport vositalarini ko'zdan ko'zdan kechirish choralar bilan qiyoslash imkonini cheklab qo'yadi. Qolaversa, mazkur holat ma'muriy huquqbazarliklarga doir ishlarni yuritishda shaxslarning huquqlari qo'pol ravishda cheklanishiga sabab bo'ladi.

2012-yil 25-dekabrdagi "Tezkor-qidiruv faoliyatni to'g'risida"gi Qonunda (keyingi o'rnlarda TQF to'g'risidagi Qonun) tintuv (shaxsiy tintuv) bilan bevosita mazmunan bir xil bo'lgan tezkor-qidiruv tadbiri nazarda tutilmagan. Lekin tezkor bo'linmalar faoliyatida shaxsdan ma'lum bir predmetni topish va olib qo'yish zarurati tug'ilganda, ular MJTK yoki JPKga muvofiq ish tutadi.

Mazkur masalaga oydinlik kiritish maqsadida tadqiqotimizda TQF to'g'risidagi Qonunning 14-moddasi birinchi qismi 9-bandida nazarda tutilgan turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish kabi tezkor-qidiruv tadbiriga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb topdi.

Mazkur tadbirning bilishga oid tuzilmasi xuddi tintuvdagagi singari kuzatuv usuliga asoslangan. TQF to'g'risidagi Qonun doirasida amalga oshiriladigan tekshiruv oshkora va nooshkora bo'lishi mumkin. Mazkur tez-

kor-qidiruv tadbirining tintuv bilan o'xshashligi shundaki, uni o'tkazish uchun prokurorning sanksiyasi talab etiladi.

Tintuv tergov harakati bilan turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish tezkor-qidiruv tadbiri o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Har qanday tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazish uchun asoslar TQF to'g'risidagi Qonunning 15-moddasi birinchi qismida belgilangan bo'lib, tintuv o'tkazish asoslari bilan hech qanday o'xshash belgilarga ega emas.

V. Karimov qayd etganidek, tezkor-qidiruvning maqsadlari jinoyat izlari, uni sodir etish qurollari, jinoyatga aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa predmetlar, ashyolar yoki hujjatlarni topish hisoblanadi [11]. Shu bilan birga, JPK tintuv o'tkazish tartibining o'z ichiga oladi, TQF to'g'risidagi Qonun esa faqatgina ma'lum bir sharoitlarda turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish o'tkazish imkoniyatiga ishora qiladi. Ma'lumki, tezkor-qidiruv tadbirlari tergov idoralari tomonidan amalga oshirilishi mumkin emas. O'z navbatida, qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida tintuv tergov harakatlari ham tezkor-qidiruv xodimlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin emas. Lekin tergov amaliyotining tahlili, tergovchilar tomonidan tezkor xodimlarga tintuv tergov harakatini o'tkazish bo'yicha topshiriqlar berish holatlari kuzatilayotganligini ko'rsatdi [12].

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, 2021-yil 15-dekabrdagi "Favqulodda holat to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasiga muvofiq, favqulodda holat joriy etilgan taqdirda tegishli vakolatlar berilgan davlat organlari vakillari O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining, fuqaroligi bo'l-magan shaxslarning shaxsiy ko'riginini, ularning shaxsini tasdiqllovchi hujjatlar tekshiruvini, ashyolarni, uy-joyni va transport vositalarini ko'zdan kechirishni o'tkazish vakolati-

ga ega bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan ko'zdan kechirish harakatlari majburlov mazmuniga ega bo'lsa-da, o'zining maqsadlari va o'tkazish tartibi bilan tintuvdan tubdan farq qiladi. Ya'ni favqulodda holat joriy etilgan hududlar da shaxsni shaxsiy ko'rnikdan o'tkazish yoki uning ashyolarini, uy-joyini va transport vositalarini ko'zdan kechirish uchun vakolatl mansabdor shaxsning qarori va prokurorning sanksiyasi talab etilmaydi. Lekin shuni ham alohida qayd etish lozimki, bunday hududlar da ham qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha tintuv o'tkazish faqat JPKda belgilangan talablar asosida amalga oshirilishi shart. Aks holda, to'plangan dalillar maqbul emas deb topiladi.

Xulosalar

Xulosa qilib shuni alohida qayd etish lozimki, qonun chiqaruvchi tomonidan "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunda

qayd etilgan "Turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastklarini, texnik va transport vositalarini tekshirish" tezkor-qidiruv tadbiri, "Favqulodda holat to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan "Ushlab turilgan shaxslar, ularning yonda bo'lgan narsalar va hujjatlar, shuningdek, ularning transport vositalari qonunchilikda belgilangan tartibda ko'zdan kechirilishi mumkin" degan mazmundagi majburlov chorasi, MJtKning "Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, ashyolar va transport vositalarini ko'zdan kechirish, ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish"ni belgilovchi XXI bobida nazarda tutilgan majburlov mazmunini o'zida aks ettirgan ko'zdan kechirish harakatlarini o'tkazish asoslari, chegaralari, unda ishtirok etayotgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini aniq mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.

REFERENCES

1. Qo'shayev N.M., Fayziyev Sh.F. Jinoyat protsessida o'tkaziladigan tergov harakatlari [Investigative actions in criminal proceedings]. Ed. Z.F. Inogomjonova. Tashkent, TSUL Publ., 2006, p. 4.
2. Tuxtasheva U.A. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Tashkent, TSUL Publ., 2007, pp. 281–282.
3. Jinoyat-protsessual huquq [Criminal procedural law]. Ed. M.A. Rajabova. Completed and revised 3rd ed. Tashkent, Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 177.
4. Investigative actions, search by tag. Available at: https://www.elibrary.ru/query_results.asp/.
5. Popov V.I. Obysk i vyyemka [Search and Seizure]. Ed. N.V. Terzieva and T.N. Alexandrova. Moscow, Vuzy, 1948, p. 7.
6. Ratinov A.R. Obysk i vyyemka [Search and seizure]. Ed. A.I. Vinberg. Moscow, Gosjurizdat, 1961. 217 p. Available at: https://www.studmed.ru/ratinov-a-r-obysk-i-vyyemka_b99d4a57a32.html
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi [National encyclopedia of Uzbekistan]. Vol. 8. Chronicle – Toytepa. Ed. board: A. Azizkhajayev, M. Aminov, T. Daminov and others. Tashkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi State Scientific Publ. House, 2004, p. 440.
8. Juridik ensiklopediya [Legal encyclopedia]. Ed. U. Tadzhikhanov. Tashkent, Sharq Publ., 2001, p. 359.
9. Novitskiy A.N. Problemnyye voprosy proizvodstva obyska i vyyemki v ugolovnom protsesse Rossiiyskoy Federatsii [Problematic issues of search and seizure in the criminal process of the Russian Federation]. *Young Scientist*, 2017, no. 38, pp. 86–87. Available at: <https://moluch.ru/authors/83106/>.
10. Kharina E.N. Obysk: vidy i tseli, osobennosti proizvodstva v sovremennykh usloviyakh [Search: types and purposes, features of production in modern conditions]. *Bulletin of the University named after O.E. Kutafin*, 2019, no. 3 (55), pp. 148–159. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/obysk-vidy-i-tseli-osobennosti-proizvodstva-v-sovremennyh-usloviyah/>.

11. Karimov V. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonuniga ilmiy-amaliy sharh [A scientific-practical review of the law of the Republic of Uzbekistan «On rapid search activities»]. Resp. eds. E.T. Yuldashev, Ye.V. Kolenko. Tashkent, 2021, 316 p., pp. 7–8.
12. Criminal case No. 302122/2022-326 under the investigation department of Buvayta district of Fergana region. Appendix 2.
13. Murodov B.B., Yesimbetova B.Ye. Sravnitelno-pravovoy analiz norm zakonodatelstva, svyazannykh s prestupleniyami protiv zdorovya [Comparative legal analysis of the norms of legislation related to crimes against health]. *EDN EEAWDV*, 2020, vol. 2, no. 1 (2), pp. 33–39.
14. Murodov B.B., Do'stmurodov U.I. Jinoyat ishini tugatish asoslarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari [Emergence and stages of development of grounds for termination of criminal case]. *Bulletin of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, 2017, no. 4, pp. 26–30. Available at: <http://akadmvd.uz/category/vestnik-akademii/>.
15. Murodov B.B. Osnovaniya prekrashcheniya ugolovnogo dela v svyazi s istecheniyem sroka davnosti privlecheniya k otvetstvennosti (opyt Uzbekistana) [Grounds for terminating a criminal case due to the expiration of the statute of limitations for bringing to justice (the experience of Uzbekistan)]. *Eurasian Union of Scientists*, 2016, no. 3-4 (24). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovaniya-prekrascheniya-ugolovnogo-dela-v-svyazi-s-istecheniem-sroka-davnosti-privlecheniya-k-otvetstvennosti-opyt-uzbekistana-1/>.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 1-son

VOLUME 7 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.1.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,

Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahih: M. Patillaryeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.03.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,8 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 12.

TDYU tipografiyasida chop etildi.